

MAKTABDA O‘ZBEK TILI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Solijonova Hilola Ikromjon qizi

NamDPI O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-kurs magistranti

hilolasolijonova1771@gmail.com

Tel: +998937051667

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim sohasiga xususan , o‘zbek tilini o‘qitishdagi ahamiyati, zamonaviy o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi uchun xos axborot asri sharoitida pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur ko‘nikmalarini , ijodiy va texnologik madaniyatni shakllantirishdan iborat.

Kalit so‘zlar. Zamonaviy texnologiya, metod, intreaktiv metodlar, axborot texnologiyalar, ‘‘buterbrod‘‘ metodi.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение обучения узбекскому языку в современном образовании, в частности, формирование необходимых навыков, творческой и технологической культуры для эффективной организации педагогического процесса в условиях информационной эпохи, характерных для современного учителя узбекского языка и литературы.

Ключевые слова. Современные технологии, метод, интерактивные методы, информационные технологии, метод ‘‘сэндвича’’.


Abstract. This article focuses on the importance of teaching the Uzbek language in modern education, in particular, the formation of the necessary skills, creative and technological culture for the effective organization of the pedagogical process in the conditions of the information age, characteristic of a modern teacher of the Uzbek language and literature.

Keywords. Modern technology, method, interactive methods, information technology, ‘‘sandwich’’ method.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim tizimida tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Xususan, o‘zbek tili ta’limida interfaol metodlar, raqamli platformalar, multimediya vositalari, elektron darsliklar va innovatsion yondashuvlarning qo‘llanilishi ta’lim sifatini tubdan oshirmoqda. Zamonaviy texnologiyalar dars jarayonini nafaqat qiziqarli qiladi, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muloqot madaniyati kabi kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Har qanday izlanuvchan , ijodkor o‘qituvchi samarali ishlash uchun ilmu fan yutuqlari va ilg‘or ish tajribalaridan erkin

foydalanishi, o‘quv mashg‘uloti jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlash va erkin fikr ifodalash metodlari, usul va vositalari bilan tanishtirib borishi zarur.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta‘lim jarayonini tizimli, izchil va natijaga yo‘naltirilgan holatda tashkil etishga zamin yaratadi. O‘zbek tili darslarida interfaol usullarning qo‘llanishi - klaster, aqliy hujum, sinkveyn, guruhiy va juftlikdagi ishlar - o‘quvchilarning dars jarayonidagi ishtirokini yanada kuchaytiradi. Bundan tashqari “Buterbrod”, “1 daqiqa” metodlarini ham misol qilishimiz mumkin. Bunday metodlar orqali o‘quvchi mavzuni tinglovchi emas, balki faol izlanishga undaladigan subyektga aylanadi. Shu tariqa dars mazmuni aniq ko‘rgazmalar, tahliliy topshiriqlar va jamoaviy faoliyat orqali chuqurroq anglanadi. Yuqorida sanab o‘tilgan metodlardan birini dars jarayonida qo‘llanilishini ko‘rib chiqamiz. “Buterbrod” metodi bu metodni asosan darsning oxirida foydalansak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buterbrodni uch qismga bo‘lsak, bunda birinchi nonli qism bu darsda takrorlab olingan ma‘lumot, orasidagi oqsillar, sabzavotlar esa bugungi darsdan olgan yangilik, oxirgi nonli qism darsda mustahkamlangan bilimlar tarzida bo‘ladi.



Darsda takrorlab olingan ma‘lumot

Darsda olingan yangilik

Darsda mustahkamlangan ma‘lumot

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari esa o‘zbek tili ta‘limining yanada samarali kechishini ta‘minlaydi.

Multimediali taqdimotlar, elektron darsliklar, audio va videodarslar, virtual ta‘lim resurslari, internet ma‘lumotlari hamda interaktiv platformalar o‘quv jarayonini yanada mazmunli qiladi. Bunday raqamli vositalar yordamida murakkab grammatik hodisalarni sodda, tushunarli obrazlar orqali yoritish, darsni ko‘rgazmali qilish, o‘quvchilar bilimni tezkor baholash mumkin bo‘ladi. AKT vositalari o‘quvchining mustaqil o‘rganish va o‘z bilimni mustahkamlashiga keng imkoniyat yaratadi. Zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchi o‘z fikrini ravon bayon qilishga, til qonuniyatlarini hayotiy jarayonlarda qo‘llay olishga, mustaqil xulosa chiqarishga intiladi. Shuningdek, bunday yondashuv o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik, jamoa bilan ishlash, bir-birining fikrini tinglash va hurmat qilish kabi ijtimoiy kompetensiyalarni ham shakllantiradi. Natijada darslar jonli, mazmunli va samarador bo‘lib boradi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘zbek tili darslarini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish bugungi ta‘lim talabi va o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Bu texnologiyalar o‘quvchini faol shaxs sifatida tarbiyalaydi,

uning ijodkorlik va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shunday ekan, har bir o‘qituvchi dars jarayonini yangicha yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va raqamli vositalar bilan boyitishi lozim. Chunki sifatli ta’lim — kelajak poydevori, zamonaviy texnologiyaga tayangan ta’lim esa zamonaviy shaxsni tarbiyalashning eng ishonchli vositasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.TO‘XLIYEV, M.SHAMSIYEVA , T.ZIYODOVA. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, T.:2006.
2. Ziyodova T.U. O‘qituvchi kitobi. Ona tili o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. – T.:2002.
3. Muxitdinova Xadicha. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish metodikasi [Matn]: o‘quv qo‘llanma / X.MUXITDINOVA. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
4. Bobokalonov R., Ne‘matova G. Ona tili o‘qitishning yangi texnologiyasi haqida. – T.:1998.
5. Ziyodova T.U. Ona tilidan rangli proeksion slaydlar komplekti, 1-2 qismlar.- Samarqand, 2002.